



LOF JANRINING MAKTAB DARSLIKLARIDA O'RGATILISHI

Gadoymurodova Feruza Baxtiyor qizi

gadoymurodovaferuza@gmail.com

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti filologiya fakulteti talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15227474>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-Aprel 2025 yil
Ma'qullandi: 10- Aprel 2025 yil
Nashr qilindi: 16- Aprel 2025 yil

KEY WORDS

*lof, mubolag'a, chilla, kokil, kift,
botmon, xipcha, munozara,
askiyabozlar.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada lof janri haqida ma'lumotlar berilib, bugungi kun maktab darsliklariga kiritish va bu orqali lof janrini yosh avlodga yanada kengroq tanitish haqida fikr-mulohazalar berib o'tiladi. O'quvchilar uchun lof janrining xalq og'zaki ijodidagi ahamiyati, uning tarixi juda qiziqarli va bu haqidagi fikr-mulohazalar bugungi kun uchun ham ahamiyatga ega.

Lof- xalq og'zaki ijodining hajviy va yumoristik janrlaridan biri bo'lib, askiya va latifaga yaqin turadi. Lug'atda "lof"- fors tilidan olingan so'z bo'lib, quruq gap, safsata degan ma'nolarni anglatadi [1, 221]. Folklorda esa mubolag'aga asoslangan, bo'rttirilgan, haqiqatdan uzoq bo'lgan yolg'on gap deb izohlangan.

Loflar, askiya va latifalar kabi so'zga mohirlikni, hozirjavoblikni, zukkolikni talab etadi. Loflar syujeti, asosan, dialog shaklida quriladi va o'ta mubolag'ali tasvirlanishi bilan boshqa janrlardan ajralib turadi. Narsa va hodisalarni mubolag'ali qilib aytish, bo'rttirib ko'rsatish har bir insonning shaxsiyatida uchraydi. Ayniqsa, yosh bolalar suhbatida ko'p uchramiz. Bolalar bir-biri bilan suhbatlashganda turli xil mubolag'ali so'zlardan ko'p foydalanadi, dadalarini hammadan kuchli ekanligini, onalarining dunyodagi barcha onalardan mehribon va chiroyli ekanligini aytib maqtanadilar. Aynan bu xususiyat bizni hozir ham tark etmagan. So'zlashuvimizda, biror bir voqeani hikoya qilganimizda ham bo'rttirib, yolg'onga yaqinlashtirib hikoya qilamiz. Bu yomon xislat ba'zi bir insonlar orasida odat darajasida.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Xalq og'zaki ijodida ham lof janrini uchratishimiz mumkin. Bunday asarlarda lof janri - mubolag'a, ya'ni badiiy tasviriy vosita sifatida keltiriladi. Jumladan, "Ravshan" dostonida Zulxumorning "bu yog'ida to'qson besh, bu yog'ida to'qson besh - o'n kam ikki yuz kokili bor. Bir yog'ini kumush suvga botirgan, bir yog'ini tilla suvga botirgan, tong shamoliga qotirgan, jamoli chillaning qoriday tinjirab, yaltirab o'tiribdi". Bu ham lof - mubolag'aning bir ko'rinishi hisoblanadi. Bundan tashqari, "Alpomish" dostonida "Shohimardon piri Boybo'rining o'g'lining otini Hakimbek qo'ydi, o'ng kiftiga besh qo'lini urdi. Besh qo'lining o'rni dog' bo'lib, besh panjaning o'rni bilinib qoldi" yoki "yetti yoshli Hakimbek Alpinbiydan qolgan o'n to'rt botmon yoyni ko'tarib, o'q uzadi va u o'q Asqar tog'ining cho'qqilarini uchirib yuboradi" kabi bo'rttirish holatlari uchraydi. O'n to'rt botmon yoy o'lchov bilan hisoblanganda bir tonna og'irlikni tashkil qiladi. Bir tonna og'irlikdagi yoyni ko'tarishni tasavvur qilish qiyin.

Xalq og'zaki adabiyotdan tashqari, biz o'rgangan badiiy adabiyot namunalarida ham lofdan foydalanishganini ko'ramiz. Masalan, Alisher Navoiy "Xamsa" sining ikkinchi dostoni bo'lgan "Farhod va Shirin" dostonida shoh Xisrav bilan Farhod o'rtasidagi suhbatda Farhodni shohning hamma savoliga hozirjavoblik bilan mantiqli javob qaytaradi.

Dedi: "Qay chog'din o'lding ishq aro mast",

Dedi: "Ruh ermas erdi tang'a payvast".

Xisrav Farhodni pisand qilmay, uning qachon ishq dardiga muhtalo bo'lganini so'raydi. Farhod esa hozirjavoblik bilan tug'ilmasdan oldin deb javob beradi. Alisher Navoiy bu suhbatda xalq og'zaki ijodining lof janridan foydalangan bo'lishi mumkin.

Loflar, qiziqchi va askiyabozlar tomonidan ijro etiladi. Lof - fikr musobaqasidir. Bunda ikki kishi ishtirok etib, munozaraga kirishadi. Birinchi kishi narsa yoki hodisani tasvirlaganda, bo'rttirib, g'ayritabiiy mubolag'a vositasida lof qiladi. Ikkinchi taraf birinchi lofchining mubolag'asini inkor qilmaydi va uni tasdiqlaydi. Ammo ikkinchi lofchi shunday javob qaytarishi kerakki, odamlarni hayratga soladigan, kulgu uyg'otadigan javob bo'lishi kerak. Bunda esa lofchilardan topqirlik, zukkolik va so'zga chechanlik talab qilinadi. Masalan:

Qo'qonlik Xudoyorxon zamonasining mashhur qiziqchi va lofchilaridan Zokirgov, toshkentlik lofchilardan Jo'ra Nilgarning uyiga mehmonga kelmoqchi bo'libdi. Bu sayohatdan maqsad Jo'ra Nilgarni lofda yengmoqlik ekan, Toshkentga kelib, uning eshigini qoqibdi. Eshik orqasidan avvaliga "Huv-v-v", degan xipcha ovozi eshitilib, orqasidan eshikning zulfini tushib sakkiz-to'qqiz yoshlardagi jamalak-jinni bir qiz ko'rinibdi.

-Achchalomalaytum, teling, amati?

-San kimning qizisan?

-Jo'yavoyning.

-Dadang qayerda?

-Samarqandda tetganlar.

-Nima ishga?

-Sharifjon amatim bilan gaplashgani.

-E, attang, attang,- debdi Zokirgov, - bo'lmasa ayangga kirib ayt: men dadangning ortog'i qo'qonlik Zokirgov bo'laman. Sizlarni ko'rgali kelib edim, qo'lim quruq emas. Sizlarga bir gilam sovg'a qilmoqchi edim. Gilamning bir boshi Toshkanning O'qchi darvozasiga kirib keldi, etagini Qo'qonda yig'ishtirishyapti. Ana shunaqa, qizim...

Shunda qizgina Zokirgovning bo'ynidan achomlab:

-Voy amatidinamdan aylanay! Yaqinda tandir yopqichimizga cho'g' tushib o'yilib qolgan edi. Sizning sovg'a gilamingiz shu joyga yamoqqa yetar ekan,- debdi.

Shunda Zokirgov: E- qa qizining lofi shu bõlsa, dadasi bilan gaplashib bo'pman, - deb Qo'qonga qaytib ketibdi.

Loflarning mavzusi rang-barang bo'lib, xalq maishiy hayotidagi turli lavhalar, voqea-hodisalarga asoslangan holda kulgu ostida tasvirlanadi. Bu lavhalar ba'zi o'rinlarda ijobiy holda tasvirlansa, ba'zi o'rinlarda esa salbiy holda fosh etiladi. Loflarning hajmi cheklangan: ikki-uch, uch-to'rt jumladan iborat bo'ladi. Lofchilarning so'zamollik bobidagi tortishuvi bevosita lofni yuzaga keltiradi. Loflarda hech qanday kirish qism bo'lmaydi. Sujet yechimi esa boshqa hajviy janrlar singari favqulodda yuz beradi. Bir misol keltirib izohlasak:

Bir lofchi ikkinchi bir lofchining uyini taqillatdi. Lofchi chiqib so'radi:

- Men bilan chandishaman, deysan, yoshing nechada?

-Odam Atodan yetti muchal kattaman,- deb javob berdi chaqirib kelgan lofchi. Bu javobdan ikkinchi lofchi ho'ngrab yig'lay boshladi.

-Nega muncha to'lib yig'layapsiz?

-Sen tug'ilgan yili mening bir uylik-joylik o'g'lim o'lgan edi, shu esimga tushib ketdi,- dedi ikkinchisi [4, 104].

Mazkur lofda eshikni taqillatgan lofchi bir vaqtni aytdiki, undan oldingi muddatni topish mumkin emasdek tuyuladi. Chunki Odam Ato odamzodning birinchi vakilidir. Birinchi lofchi o'zini Odam Atodan ham yoshi katta ekanligini aytdi. Ikkinchi lofchi esa hozirjavoblik va so'zga chechanlik bilan javob qaytarib, birinchi lofchining so'zini yanada bo'rttirib aytdi.

Folklorshunos Omonulla Madayev to'g'ri ta'kidlaganidek: "Latifalarda, lofda, askiyada kulgiga sabab bo'lgan jumlaning kashfiyot darajasida baholash mumkin. Ularni o'ylab topgan shaxs katta hayot tajribasiga ega bo'ladi, ayniqsa, vaziyatni to'g'ri baholab kulgi hosil qilish mahoratini namoyish etadi. Buning uchun u til boyligidan ham yaxshi foydalana olish fazilatiga ega bo'lishi zarur" [1, 222].

Natijalar

"Xalq loflari"ni maktab darsliklarida qanday metodlar va usullar orqali bolalarga yetkazishimiz mumkin degan savolga quyida javob topamiz. Hozirgi kunda o'quvchilarni darslarga qiziqtirish, darsda faolligini oshirish maqsadida biz pedagoglar darslarda turli xil zamonaviy interfaol metodlardan foydalanishimiz lozim. "Bumerang -2" metodi o'quvchilarga tanqidiy fikrlash, ularda mantiqni shakllantirishga imkon yaratadi, shuningdek, ularning xotirasini mustahkamlab, g'oyalarini, fikrlarini, dalillarini yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bu metod quyidagicha o'tkaziladi. Mashg'ulotni o'tkazish uchun A-3, A-4 formatdagi qog'oz varaqlar va flomaster kerak bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarning umumiy soniga qarab, 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi. Har bir qog'ozning yuqori qismida yozuvi bor bo'lgan varaqlarni o'quvchilarga tarqatadi (Masalan, "Loflar - bu ", "Loflarga misollar " va boshqalar). O'qituvchi kichik guruhlariga tarqatma materialda yozilgan asosiy fikrning davomini faqat uch fikr bilan davom ettirishlarini uqtiradi va ma'lum vaqt belgilaydi. O'quvchilar birin-ketin fikrlarni davom ettiradi. Vaqt tugagach, guruhlardan bittadan a'zo chiqib varoqdagi so'zlarni o'qiydi. O'quvchilar to'g'ri javoblariga qarab baholanadi.

Muhokama

Maktab darsliklarida xalq loflariga bosqichma-bosqich o'rin berilishi kerak deb o'ylayman. Ayniqsa, boshlang'ich sinf darsliklarida o'quvchilarning yoshiga mos, tushunarli va kulgili mazmundagi loflar tanlanishi kerak. Yuqori sinflarda esa loflar orqali ijtimoiy tahlil, obraz tahlili, g'oya va badiiy vositalarni aniqlash kabi mashqlar amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi zamonaviy darslarda xalq loflarini o'qitishda quyidagi metodik usullar qo'llanilishi mumkin:

- Rolli o'yinlar: o'quvchilar loflarni sahnalashtirish orqali o'zlashtiradi;
- Savol-javoblar: mazmunni chuqur anglashga xizmat qiladi;
- Rasm chizish yoki dialog tuzish: obrazlarni tasavvur qilish va ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi;
- Yangi loflar yaratish: o'quvchilarning mustaqil ijod qilishiga yo'l ochadi.

Xalq loflarining maktab darsliklarida o'qitilishi aniq foizlarda samara beradi deb aytish

biroz qiyin, chunki bu holat ko'plab omillarga bog'liq: dars berish metodikasi, o'qituvchining mahorati, o'quvchilarning yoshi, darslikdagi matnlar sifati va hokazo. Shunga qaramay, tadqiqotlar va amaliy kuzatuvlar asosida shuni aytish mumkinki:

Agar xalq loflari to'g'ri metodik yondashuv bilan, ya'ni sahnalashtirish, muhokama, ijodiy topshiriqlar bilan o'qitilsa, bu 70-80% gacha ijobiy ta'sir beradi. Bu ta'sir o'quvchilarning til boyligi, axloqiy dunyoqarashi va xalq ijodiga bo'lgan qiziqishi orqali o'lchanadi. Ammo faqat matnni o'qish bilan cheklanilsa, bu samaradorlik 40-50% atrofida bo'lishi mumkin.

Xulosa

O'zbek latifalari va loflari o'zining uzoq yillik tarixi davomida xalqimiz ma'naviyatining o'sishiga barakali ta'sir qilib keladi. Hayotda uchrab turadigan ayrim nuqson va kamchiliklarni, yomon odatlarni tuzatishda, yosh avlodni umumbashariy qadriyatlar, insoniylik ruhida tarbiyalashda latifa va loflarning, shubhasiz, o'rni beqiyosdir. Shunday qilib, loflarda o'zbekning kulgiga moyil xalq ekani yana bir bor namoyon bo'ladi. Loflar xalqimizning zukkoligini, fikrlash chegarasi beqiyos ekanligini, so'zga chechan va hozirjavobligini dalillovchi janrlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev .T, Turdimov.Sh , Jo'rayev .M, Eshonqulov .J , Tilavov .A . O 'zbek folklori. – Toshkent :”MALIK PRINT CO “, 2021. -B .221-222.
2. Murodova M . Folklor va etnografiya. -Toshkent .2006 . -B.70.
3. Masharipova Z. O'zbek xalq og'zaki ijodi .-Toshkent .2007.-B 109-110.
4. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. -Toshkent :”Mumtoz So'z” .2010.
5. Ишмухамедов Р, Юлдашев М .Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. - Тошкент.2013.
6. Xalq ijodi boyligidan:Loflar .<https://kh-davron.uz/kutubxona /uzbek /xalq -ijodi -boyligidan -loflar.html>.
7. Loflar. <https://arxiv .uz/uz/documents/referatlar/adabiyotlar/loflar>.
8. Xalq ijodi boyligidan: Loflar. <https://kh-davron.uz/kutubxona/Uzbek/xalq-ijodi-boyligidan-loflar .html>